

4. Хусанов Б., Фуломов В. “Муомала маданияти” Таълим нашриёти. –Тошкент: 2009.
5. Мардонов Ш.Қ. Педагог кадрларни таълимий кадрятлар асосида тайёрлаш ва малакасини оширишнинг педагогик асослари; пед. фан. докт.... дисс.... –Тошкент: 2006, 302-б.
6. Куронов М. Ўзбекистонда умумий ўрта таълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари; пед. фан. номз.... дисс.... –Тошкент: 2000, 155-б.
7. Ерназаров Р.У. Миллий ва умум инсоний кадрятлар диалектикаси: пед. фан. номз.... дисс.... –Тошкент: 1993, 163-б.
8. Маматқулова Р. Миллий маънавий меърос асосида университетларнинг талабаларида хулқ-оодоб фазилятларини тарбиялаш: пед. фан. номз.... дисс....-Тошкент: 1995, 221-б.
9. Шарафутдинова Х. Ўқув-методик мажмуа. Педагогик фаолият психологияси. –Термиз: 2019.
10. gazeta.uz

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақолада олий таълимда тахсил олаётган талабаларга қадимий анъаналаримиз ва боқий кадрятларимизни ҳозирги замон илм-фани ютуқлари билан уйғунлаштирган ҳолда ўргатиб боришнинг афзаллиги ўрганилади. Бугунги кунда педагогик ҳамкорлик асосида миллий мулоқот маданиятини ривожлантиришда урф-одат, анъана, миллий, умуминсоний, таълимий кадрятларни, миллий маънавий меъросимизни мукамал билишимиз зарурдир. Бунинг учун эса педагог талабалар билан мулоқотини тўғри ташкил этиши ва сўзлашишни, мулоқот олиб боришни доимо ўрганиб бориши аҳамиятлидир. Чунки бу педагогга дарсни самарали олиб бориш имконини беради. Шунга қўра мақолада суҳбат, лекция, хикоя қилиш каби усулларида унумли фойдаланиш асосида таълим-тарбия жараёнига миллий мулоқот маданиятини ривожлантириш омилларининг олиб киришнинг аҳамиятлиликлари даражаси илмий жиҳатдан таҳлил қилинган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматриваются достоинства обучения студентов высших учебных заведений путем сочетания наших древних традиций и вечных ценностей с достижениями современной науки. Сегодня на основе педагогического сотрудничества нам необходимо совершенное знание обычаев, традиций, национальных, общечеловеческих, воспитательных ценностей, нашего национального духовного наследия в развитии культуры национального общения. Для этого важно, чтобы педагог правильно организовывал свое общение с учащимися и постоянно учился говорить и общаться. Потому что это позволяет педагогу эффективно провести урок. Соответственно, в статье научно анализируется важность внедрения в учебный процесс факторов развития национальной культуры общения на основе эффективного использования таких методов, как беседа, лекция, рассказывание историй.

SUMMARY. This article highlights the benefits of teaching higher education students our ancient traditions and eternal values in combination with the achievements of modern science. Today, in the development of a culture of national dialogue on the basis of pedagogical cooperation, it is necessary to have a thorough knowledge of customs, traditions, national, universal, educational values, our national spiritual heritage. To do this, it is important that the teacher properly organizes communication with students and constantly learns to talk, to communicate. Because it allows the teacher to conduct the lesson effectively. Accordingly, the article scientifically analyzes the importance of the introduction of factors in the development of a culture of national communication in the educational process based on the effective use of methods such as conversation, lecture, storytelling.

TALABALARNING INTELLEKTUAL-KOGNITIV SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

J.S.Otepbergenov – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: intellekt, salohiyat, kognitiv bilim, intellektual-kognitiv salohiyat, taʼlim tizimini raqamlashtirish, boʻlajak pedagog-oʻqituvchilar, intellekt nazariyasi.

Ключевые слова: интеллект, потенциал, познавательные знания, интеллектуально-познавательный потенциал, цифровизация образовательной системы, будущие учителя-педагоги, теория интеллекта.

Key words: intelligence, potential, cognitive knowledge, intellectual-cognitive potential, digitization of the educational system, future pedagogues-teachers, theory of intelligence.

Jahonda qabul qilingan “insonning butun hayoti davomida taʼlim olishi” gʻoyasi yurtimizda taʼlim sohasidagi asosiy printsiplaridan biri sifatida belgilanishi [1] oʻz-oʻzidan har bir shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirib borishini talab etadi. CHunki XXI asr inson kapitaliga boʻlgan ijtimoiy buyurtmani vujudga keltirmoqda. Ayniqsa, yoshlarga samarali taʼlim va tarbiya berishda muhim rol oʻynaydigan pedagog-kadrlarning intellektual-kognitiv salohiyatini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

“Intellektual-kognitiv salohiyat” tushunchasini ilmiy-pedagogik fenomen sifatida tahlil etish uning tarkibini tashkil etuvchi “intellekt nazariyasi”, “kognitsiya nazariyasi” va “salohiyat nazariyasi” masalalarini alohida ilmiy-pedagogik jihatdan oʻrganishni talab etadi.

Ilm-fanda intellekt nazariyasi asosan kreativlik va ijodkorlik bilan bogʻliq holda tahlil etilgan. Aytish joizki, intellekt masalasi asosan psixologik jihatdan oʻrganilgan boʻlib, bu borada CHarʼz Spimening “Intellektning ikki omilli nazariyasi” (umumiy va spetsifik), Xom Kerrol Kattelning uch darajali modeli, Govard Gardnening “Intellektning koʻp darajali nazariyasi”, Robert Sternbergning “Intellektning uchlik nazariyasi” (analitik-komponentli, tajriba-ijodiy, amaliy-kontekstual), Djoy Pol Gilfordning “Intellekt

strukturasining modeli” nazariyasi (operatsiya, mazmun, natija), Mayk Andersonning “Intellekt va kognitiv rivojlanish nazariyasi” singari nazariyalar shakllangan. Mazkur nazariyalarning oʻrganish natijalari shuni koʻrsatadiki, psixolog olimlar tomonidan mazkur fenomenga turlicha yondashuvlar shakllangan. Bu esa oʻz navbatida “intellekt” tushunchasi keng qamrovli tuguncha ekanligidan dalolat beradi. Lekin intellekt bilan shugʻullangan olimlar tomonidan uning qoʻyidagi jihatlari boʻyicha yaxlit fikrga kelganligini koʻrish mumkin. YAʼni, intellekt insonlarga qoʻyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- mantiqiy va ratsional fikrlash,
- turli xil muammo va masalalarni echish,
- ijtimoiy meʼyorlar, urf-odat va anʼanalarni anglash va tushunish,
- turli xil vaziyatlarni tizimli tahlil etish,
- oʻzining hayotiy tajribalari asosida oʻqish va hayotiy muammolarni hal etish va h.k.

Aynan bu kabi hususiyatlarni boʻlajak pedagog-oʻqituvchilarda shakllantirish taʼlimning sifatini oshirishga xizmat qiladi. CHunki bugungi pedagog-oʻqituvchilarning oldiga qator vazifalar belgilangan. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim tugʻrisida”gi Qonunida “pedagog-oʻqituvchilar oʻquv mashgʻulotlarini sifatli oʻtkazishi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan,

o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi; ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi lozimligi» singari majburiyatlari belgilangan [1]. Bu kabi majburiyatlarni bajarishda, albatta, bo'lajak o'qituvchilarning talabalik davridan boshlab intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirib borish maqsadga muvofiqdir.

Kognitivlik masalasi ham psixolog va pedagog olimlar tomonidan shuningdek, tibbiyot sohasida ham ilmiy jihatdan o'rganilmoqda. Ayniqsa, pedagogik jihatdan uning turli qirralari tahlil etilgan. Masalan, A.S.Kats [6], Vyazovova E.V. [5], D.V.Dudko [5], M.T.Mirsoliev [8], N.A. Muslimov [9], M.D.Pardaeva [12], J.S.Otepbergenov [11] singari olimlar tomonidan kognitivlikning turli qirralari tahlil etilgan. Masalan, A.N.Shamov umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zga tillar leksikasini o'rganishga kognitivlik yondashuvni modellashtirish masalasini ilmiy jihatdan o'rgangan [15] bo'lsalar, U.SH.Begimqulov [2], O.G'.Davlatov [4] singari olimlar esa ta'lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda pedagoglarning o'quv-bilish faoliyatini va kognitivlik kompetentligini rivojlantirishning didaktik asoslarini tahlil etishgan. Ilmiy izlanishlarning natijasi ularoq kognitiv pedagogika sifatida pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida ajralib chiqmoqda. Bunga S.F.Sergeev, M.E.Bershadskiy, O.M.Chorosavay singari olimlarning umumiy tahriri ostida tayyorlangan monografiyasini [13], B.A.Kydyrova [7] ilmiy ishlarini misol qilib olishimiz mumkin.

Olima Z.R.Muxamadiyeva o'zining ilmiy izlanishlari jarayonida bo'lajak mutaxassislarda intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalarining dolzarb vazifalaridan biri ekanligini alohida ta'kidlagan holda uning qo'yidagi holatlar bilan bog'liq ekanligini bildiradi. Bular:

- iqtisodiy omillarning rivojlanishga ta'sir etuvchi omillarning asosiysi – bu intellektual maxsulotlar hisoblanadi. Mulk shaklining asosiy kaliti esa intellektual-kognitiv komponentlardir. Aynan intellekt va kognitsiya

ilm bilan ishlab chiqarishning rivojlanishini, xalqaro jarayonlarda davlatning o'rnini belgilab beradi,

- intellektual-ijodiy va kognitiv maxsulotdorlik jamiyatning regressiv chizgilariga, uning destruktiv tendentsiyalariga qarshi turadigan mexanizm hisoblanadi,

- atrof-muhitda sodir bo'layotgan hodisa va voqealarga inson o'zining intellektini qo'llash orqali tahlil qila olsa va baholasa uni boshqalarning manipulyatsiya qilishining oldini olish imkoniyati kengayadi [10].

Demak, talabalarining intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish bugungi davr talab etayotgan raqamlashtirilgan sharoitga mos kadrlarni tayyorlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki raqamlashtirish nafaqat bugungi kun chaqirig'i, balki ta'lim sohasidagi eng yirik muammolarni hal etishning samarali ta'sirini ko'rsatadigan, insonlarning shaxsiy va kasbiy hayotida muhim o'rinni egallaydigan transformatsion jarayon hisoblanadi. Lekin shunga qaramasdan raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirish, ulardan samarali foydalanish bo'yicha jahon miqyosida qator muammolarning yuzaga kelayotganligi aniqlangan. SHulardan biri – bu oliy ta'lim tiziga raqamli texnologiyalarni joriy etishga xalaqit qilayotgan bar'lar hisoblanadi. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu kabi bar'lar ikkita yo'nalishda ko'zga tashlanayotganligi e'tirof etilgan [14]. Bular:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishdagi bar'lar (raqamli transformatsiya bo'yicha strategik rejalarning yo'qligi, raqamli texnologiyalarni joriy etishga resurslarning etishmasligi, OTMlarda IT-infrastrukturaning etarlicha rivojlanmaganligi va h.k.)

2. Pedagogik-psixologik yo'nalishdagi bar'lar (raqamli texnologiyalarni qo'llashga doir ko'nikma va malakalarning etishmasligi, yangi texnologiya va innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirishga doir qiziqishning so'stligi, pedagoglar va talabalar o'rtasida raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirishning qiyinligi haqidagi tushunchalarning shakllanganligi, ular uchun yaratilib dasturga aylanib qolgan konfort zonadan chiqib ketishga bo'lgan xoxishning yo'qligi va h.k.).

Ko'rsatib o'tilgan bar'larining ikkita turi ham bugungi kun talabalaridan informatsion-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalardan ta'lim jarayonida samarali foydalanishga doir ham bilim, ya'ni kognitiv salohiyatni hamda intellektual, ya'ni aqliy salohiyatini talab etadi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. (23.09.2020) // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020., 03/20/637/1313 – сон.
2. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти: пед.фан. докт. ... дисс. – Тошкент: 2007, 305-б.
3. Вязова Е.В. Формирование когнитивной компетентности у учащихся на основе альтернативного выбора учебных действий (на примере обучения математике). – Нижний Тагил: 2009, -С.140.
4. Давлатов О.Ф. Талабаларда ахборот хавфсизлигини таъминлаш компетентлигини тарихий-маданий мерос воситасида ривожлантириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. – Тошкент: 2018, 177-б.
5. Дудко Д.В. Когнитивная компетентность личности будущего педагога и динамика ее формирования //Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. Вып.63. 2008, № 2. – С. 63-67.
6. Кац А.С. Когнитивные стили современных педагогов: от дифиниции к реализации. //Вестник Чувашского государственного педагогического университета им. И.Я.Яковлева. 2020 №3 (108). –С. 176-182. <https://cyberleninka.ru/article/n/kognitivnye-stili-sovremennyh-pedagogov-ot-definitcii-k-realizatsii>
7. Кыдырова Б.А. Когнитивная педагогика: основные проблемы и возможности. <https://cyberleninka.ru/article/n/kognitivnaya-pedagogika-osnovnye-problemy-i-vozmozhnosti>
8. Мирсолиева М.Т. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фан доктори (DSc). ...дисс. – Тошкент: 2019, 225-б.
9. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед.фан.докт. ... дисс. -Тошкент: 2007, 357-б.
10. Мухаммадиева З.Р. Теоретические основы развития интеллектуально-когнитивного потенциала студентов в условиях кредитной системы обучения в вузах Республики Таджикистан. Автореф. дисс. к.п.н. –Душанбе: 2013. <https://www.dissercat.com>.
11. Отепберганов Ж.С. Ахборот таълим муҳити шароитида талабаларда когнитив компетентлигини ривожлантириш технологияси. Пед.фан.фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Нукус: 2020, 130-б.
12. Пардаева М.Д. Умумий ўрта таълим мактабларида компетенциявий ёндашувни жорий этишнинг методик тизимини бошқариш (информатика ва ахборот технологиялари фани мисолида): педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дис. автореф. – Тошкент: 2020, 49-б.

13. Сергеев С.Ф., Бершадский М.Е., Чоросавай О.М. Когнитивная педагогика: технологии электронного обучения в профессиональном развитии педагога: монография. СВФУ им. М.К.Аммосова, Инст-т непрерывного проф. образования. – Якутск, 2016. – 337с. <https://www.s-vfu.ru/universitet/rukovodstvo-i-struktura/instituty/ipkp/>.

14. Тернер Е.Ю. Цифровизация высшего образования: барьеры цифровой трансформации в высших учебных заведениях и онлайн-обучение (Ocl). Вестник Чувашского государственного педагогического института им. И.Я.Яковлева. 2022. №4 (117). –С.170-176.

15. Шамов А.Н. Когнитивный подход к обучению лексике: моделирование и реализация (базовый курс немецкого языка).- Автореф дисс. докт.пед.н., - Тамбов: 2005. -С.49. <https://nauka-pedagogika.com>

REZYUME. Maqolada ta'limni sifat bosqichiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylanayotgan bugungi kunda ta'lim tizimga raqamli texnologiyalarni olib kirish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan holda ushbu jarayonlarga bo'lajak pedagog-o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash masalasi tahlil etilgan. Bunday ayniqsa ularning kognitiv, ya'ni ularning o'z sohasini yaxshi bilishi hamda intellektual, ya'ni aqliy salohiyatga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy tahlil etilgan. SHu bilan bir qatorda maqola intellekt nazariyasi tahlil etilgan holda bugungi kunda talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini oshirish ilmiy-pedagogik muammo ekanligi ilmiy asoslangan.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируется вопрос с акцентом на важную значимость внедрения цифровых технологий в систему нынешнего образования, который становится одним из приоритетных задач государственной политики по продвижению образования на качественный уровень, подчеркивающий профессиональную подготовку будущих педагогов-учителей к этим процессам. Научно проанализировано, что такое важное значение имеют их когнитивные, то есть их высокое знание своей сферы, а также их интеллектуальные, то есть умственные потенциалы. Вместе с этим, анализируя теорию интеллекта, в статье научно обоснована научно-педагогическая проблема повышения интеллектуально-когнитивного потенциала студентов в нынешнее время.

SUMMARY. The article analyzes the issue of professional training of future teachers for these processes, emphasizing the importance of introducing digital technologies into the education system today, when raising education to a quality level is becoming one of the priority tasks of state policy. It is scientifically analyzed that it is especially important for them to be cognitive, that is, to know their field well, and to have intellectual, that is, mental potential. Moreover, the article analyzes the theory of intelligence and scientifically substantiates that increasing the intellectual and cognitive potential of students today is a scientific and pedagogical problem.

PEDAGOG-TARBIYACHINING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

D.Reymbergenova – magistrant

N.Sultanova – magistrant

Q.D.Tleumbetova – docent

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: mahorat, pedagogika, kasbiy tayyorgarlik, metodlar, vazifa, tarbiyachi, talaba, sifat, pedagog.

Ключевые слова: мастерство, педагогика, профессиональная подготовка, методы, задача, воспитатель, ученик, качество, педагог.

Key words: skill, pedagogy, professional training, methods, task, educator, student, quality, pedagogue.

Bugungi kunda poedagog-tarbiyachilarning kasbiy salohiyatini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining professor-pedagoglari tarkibi tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o'qitish texnologiyalari bo'lajak mutaxassis tarbiyachilarning kasbiy salohiyatining qaror topishi va tarbiyalash, ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, kasbni egallashning kasbiy-ahamiyatli bazasini yaratishga, kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorgarlikning va qodirlikning sekin-asta shakllanishida ahamiyatli hisoblanadi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda va pedagog olimlarning ilmiy izlanishlarida "mahorat", "kompetentsiya" degan tushuncha keyingi paytlarda bir xil ko'lamda keng qo'llanilib kelinmoqda. "Kasbiy salohiyat" – tushunchasi esa, shaxsning doimo o'sib boruvchi tasnifi bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni echish qobiliyati, o'z bilimi, o'quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlar va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanadi.

«Kasbiy salohiyat» atamasi ta'lim sohasiga pedagoglar va psixologlarning izlanishlari natijasida kiritilgan edi. Pedagogik mahorat, noan'anaviy vaziyatlarda yoki kutilmagan hollarda o'zini qanday tutish, muloqotga kirishish, raqobatdoshlari bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l topish, mavhum vazifalarni bajarishda, ziddiyatli ma'lumotlardan foydalanishda, hamisha rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda qanday harakat qilishi kerakligi to'g'risida nazariy bilimlar zarurligini isbotlab beradi.

Kasbiy salohiyat o'z bilimlarini doimiy boyitib borishni, yangi va kerakli axborotlarni o'rganishni, bugungi kun va davr talablarini his va idrok etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kasbiy salohiyat egasi bo'lgan tarbiyachi muammolarni hal etishda o'zi

o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi aniqlangan.

Agarda pedagogning kasbiy mahorat dasturiga amaliy qaralsa, u holda birinchi o'ringa uning integral sifati – tarbiyachining mahoratidan iborat bo'ladi. Pedagogik mahoratga berilgan ta'riflar shuncha ko'p bo'lishiga qaramay, ularda mahoratning qaysidir tomonlari albatta ifodalanadi.

Mahorat - bu yuqori va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidan iborat. Pedagog – o'z ishining ustasi, o'z fanini chuqur biluvchi, fan va san'atning mos sohalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o'qitish va tarbiyalash metodikasini har tomonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo'lgan mutaxassis. Pedagogik nazariyada tarbiyachi mahoratini ikki xil tushunish mavjud. Birinchisi, pedagogik mehnatni tushunish bilan bogliq bo'lsa, ikkinchisi tarbiyada pedagog shaxsi asosiy o'rini tutadi.

Umuman olganda, zamonaviy o'qitish uslublari va tadqiqotchilarning ilmiy-pedagogik xulosalari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ta'lim "pedagogik ta'sir" asosida emas, balki "o'zaro ta'sir" asosida, bunda pedagogik faoliyat asosida interfaol shaklda tashkil etilishi lozim [4:58].

Pedagog- tarbiyachi vaziyatdan kelib chiqib, o'zini qanday qilib to'g'ri tutish kerakligini bilishi kerak. Bu o'quvchilarga alohida e'tibor berishda, o'quvchilarni darsda faol ishtirok etishga undashda namoyon bo'lishi mumkin, natijada o'quvchi hayajonli musiqa tinglashdan tortib, jarayonning kognitiv qismidan zavqlanadi. Bolalarni diqqat bilan kuzatib borish orqali ularning idrok etish darajasini, asarni ijro etish sifatini, o'ziga xos ish uslubini va shunga